



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

RAQAMLI JAMIYATDA DEZINFORMATSIYA VA UNING YOSHLAR ONGIGATA'SIRI

Quchqorov Javlon Suyundik o'g'li

Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti, kafedra mudiri, dotsent (PhD)

Annotatsiya

Mazkur ishda raqamli jamiyat sharoitida dezinformatsiyaning tarqalish mexanizmlari, uning axborot makonidagi o'rni hamda yoshlar ongiga ko'rsatadigan ijtimoiy-psixologik ta'siri tahlil qilinadi. Internet va ijtimoiy tarmoqlarning keng rivojlanishi natijasida noto'g'ri va chalg'ituvchi axborotlarning tezkor tarqalishi kuzatilayotgani, bu esa yoshlarning dunyoqarashi, tanqidiy fikrlashi va qaror qabul qilish jarayonlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: raqamli jamiyat, dezinformatsiya, axborot xuruji, yoshlar ongi, ijtimoiy tarmoqlar, media savodxonlik, axborot xavfsizligi, manipulyatsiya, tanqidiy fikrlash, feyk axborot.

ДЕЗИНФОРМАЦИЯ В ЦИФРОВОМ ОБЩЕСТВЕ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА СОЗНАНИЕ МОЛОДЕЖИ

Кучкоров Жавлон Суяндик угли

Каттакурганский государственный педагогический институт, заведующий кафедрой, доцент (PhD)

Аннотация

В данной работе рассматриваются механизмы распространения дезинформации в условиях цифрового общества, её роль в информационном пространстве, а также социально-психологическое воздействие на сознание молодёжи. В результате стремительного развития Интернета и социальных сетей наблюдается быстрое распространение ложной и вводящей в заблуждение информации, что оказывает негативное влияние на мировоззрение молодёжи, их критическое мышление и процессы принятия решений.

Ключевые слова: цифровое общество, дезинформация, информационная атака, сознание молодёжи, социальные сети, медиаграмотность, информационная безопасность, манипуляция, критическое мышление, фейковая информация.

DISINFORMATION IN THE DIGITAL SOCIETY AND ITS IMPACT ON YOUTH CONSCIOUSNESS

Quchqorov Javlon Suyundik o'g'li

Kattaqo'rg'on State Pedagogical Institute, Head of Department, Associate Professor (PhD)

Abstract

This paper examines the mechanisms of disinformation dissemination in the context of a digital society, its role in the information space, and its socio-psychological impact on youth consciousness. With the rapid development of the Internet and social media, the fast spread of misleading and false information is increasing, which negatively affects young people's worldview, critical thinking, and decision-making processes.

Keywords: digital society, disinformation, information attack, youth consciousness, social media, media literacy, information security, manipulation, critical thinking, fake information.

Hozirgi globallashuv va raqamlashtirish jarayonlari jadallik bilan rivojlanayotgan davrda jamiyat hayotining barcha sohalarida axborotning o'rni va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, internet va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi natijasida axborot almashinuvi tezlashib, turli manbalardan kelayotgan ma'lumotlar hajmi keskin oshdi. Biroq mazkur jarayon bilan bir qatorda, ishonchsiz, noto'g'ri va ataylab tarqatiladigan dezinformatsiya muammosi ham dolzarb tus olmoqda. Dezinformatsiya zamonaviy axborot makonining murakkab va xavfli hodisalaridan biri bo'lib, u jamiyat ongiga, xususan, yoshlar tafakkuri va dunyoqarashiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Yoshlar axborotni asosan raqamli platformalar orqali qabul qilayotganligi sababli, ular turli manipulyativ xabarlar, feyk yangiliklar va axborot xurujlariga nisbatan ko'proq ta'sirchan hisoblanadi. Bu esa ularning tanqidiy fikrlash darajasi, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati hamda ijtimoiy faolligiga bevosita ta'sir etadi. Raqamli jamiyat sharoitida dezinformatsiyaning tarqalish mexanizmlarini o'rganish, uning yoshlar ongiga ko'rsatadigan ta'sirini ilmiy asosda tahlil qilish hamda ushbu salbiy holatlarning oldini olishga qaratilgan samarali

choralarni ishlab chiqish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur ish aynan ushbu masalalarni yoritishga qaratilgan.

“Dezinformatsiya” atamasi ilk bor XX asrning 20-yillarida paydo bo‘lgan bo‘lsa-da, u aynan XXI asrda, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keskin rivojlanishi fonida keng ommalashdi [1]. Internet, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar, dezinformatsiyaning asosiy tarqalish maydoniga aylandi. Bu esa yangi axborotlar oqimining nazoratsiz ravishda paydo bo‘lishi va ularning ishonchligini o‘z vaqtida aniqlash muammosini yuzaga keltirmoqda. Dezinformatsiya ko‘pincha manipulyativ maqsadlarga xizmat qiladi: foydalanuvchilarni chalg‘itish, ularda noto‘g‘ri qarorlar shakllantirish yoki ma‘lum bir nuqtai nazarni qabul qildirish uchun ataylab ishlab chiqiladi. Ko‘plab dezinformatsion manbalar o‘zlarini ishonchli axborot resursi sifatida ko‘rsatadi, bu esa ularning yolg‘on va buzib ko‘rsatilgan ma‘lumotlarini yanada xavfli qiladi, ayniqsa yoshlar va o‘quvchi-talabalar orasida. Rossiyalik faylasuf va adib V. I. Svintsov dezinformatsiyani “haqiqat sifatida (obyektiv) yolg‘on bilimni uzatish yoki yolg‘on sifatida (obyektiv) haqiqatni uzatish” deb ta‘riflaydi [2]. G. A. Koptina esa dezinformatsiyani “til resurslarini mohirona qo‘llagan holda kishining tafakkuri va xulq-atvoriga yashirin ta‘sir ko‘rsatish orqali amalga oshiriladigan manipulyativ ta‘sir shakli” sifatida talqin qiladi.

Dezinformatsiya — bu haqiqat sifatida taqdim etilgan, aslida esa yolg‘on yoki chalg‘ituvchi axborot bo‘lib, uning maqsadi odamlarni noto‘g‘ri xulosalarga olib kelish, ularning bilim, qaror va xatti-harakatlariga ongli ta‘sir ko‘rsatishdan iboratdir.

Dezinformatsiya — yolg‘onning ma‘lum bir shakli sifatida inson ongida va jamiyat hayotida doimiy ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. U qadimdan diniy ta‘limotlarda muhokama qilinib, falsafa, axloq, mantiq, psixologiya, pedagogika va huquqshunoslik kabi ko‘plab fanlar tomonidan puxta o‘rganilgan. Dezinformatsiya insoniyat tarixining barcha bosqichlarida, har qanday madaniyat va jamiyatda uchraydi hamda shaxslararo, guruhlararo, hattoki davlatlararo munosabatlarga ta‘sir ko‘rsatadi. Bu holat uning ijtimoiy o‘zaro ta‘sir darajasida chuqur va keng ko‘lamli ta‘sirga ega ekanligini ko‘rsatadi. Yolg‘on va noto‘g‘ri ma‘lumotlar ijtimoiy munosabatlar tizimini buzishi, ishonchni kamaytirishi, qarama-qarshiliklar va nizolarni keltirib chiqarishi mumkin. Dezinformatsiya jamiyatda axloqiy qadriyatlarning zaiflashishiga, shaxslararo muloqotning buzilishiga va ta‘lim tizimida o‘quvchilarning bilim olish jarayoniga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shu sababli, dezinformatsiyaning tabiati va uning jamiyatdagi o‘rni haqida chuqur bilimga ega bo‘lish, uni aniqlash va unga qarshi samarali pedagogik va huquqiy yondashuvlarni ishlab chiqish katta ahamiyat kasb etadi.

Demokratiya axborotning erkin oqimiga tayangan bo‘lib, bu ommaga ma‘noli tanlovlar qilish, yetakchilarni hisobga tortish va fuqarolik hayotida faol ishtirok etish imkonini beradi. Xilma-xil axborot manbalari, mustaqil va ko‘p sonli yangiliklar manbalari hamda erkin va ochiq munozaralar mavjud bo‘lishi kerak, shunda fuqarolar asosli va xabardor demokratik munozaralarda qatnashishlari mumkin bo‘ladi. Noto‘g‘ri va chalg‘ituvchi ma‘lumotlarning, ko‘pincha ichki va tashqi kuchlar tomonidan ataylab tarqatilishi, jamiyatda adashish va bo‘linishlarni kuchaytiradi, ishonchsizlikni kuchaytirib, demokratik jarayonlarga putur yetkazadi. So‘nggi tadqiqotlarga ko‘ra, noto‘g‘ri va dezinformatsiyaning tez va global miqyosda tarqalishi demokratik munozaralarni qo‘llab-quvvatlovchi erkin va faktlarga asoslangan axborot almashinuvi uchun asosiy xavfni tashkil qiladi.

“Misinformatsiya” — bu xabardorliksiz tarqatilgan, yolg‘on yoki noto‘g‘ri ma‘lumot bo‘lib, uning maqsadi odamlarni aldash emas. “Malinformatsiya” esa zarar yetkazish uchun tarqatilgan aniq ma‘lumot, masalan, shaxsiy ma‘lumotlarni ommaga oshkor qilishdir. “Dezinformatsiya” esa odatda shaxs, ijtimoiy guruh, tashkilot yoki davlatga zarar yetkazish uchun ataylab yaratilgan, noto‘g‘ri, yolg‘on yoki chalg‘ituvchi ma‘lumot deb ta‘riflanadi [3].

Yolg‘on va chalg‘ituvchi ma‘lumotlar to‘lqinlari jamiyat birligini zaiflashtirishi, faktlarga ishonchni kamaytirishi va davlat institutlariga ishonchni yemirishi mumkin. Yolg‘onning psixologik jihatlari, dezinformatsiya bilan bog‘liq umumiy fenomen sifatida, an‘anaviy ravishda umumiy, huquqiy, pedagogik va ijtimoiy psixologiya sohalarida o‘rganiladi. Turli olimlar tomonidan yolg‘on turlicha talqin qilingan. Masalan, K. Melitan (1903) uni «uydirma» deb atagan; J. Dyupra (1905) — «ta‘sir ko‘rsatish harakati»; V. Shtern (1905) — «oniy noto‘g‘ri guvohlik»; O. Lipmann (1926) — «natijaga qaratilgan irodamand harakat»; A. R. Luriya (1927) — «maxsus fikrlash turi»; G. Dyuravden (1970) — «ta‘sir o‘tkazish harakati»; V. V. Znakov (1994) — «muloqotdoshni adashtirishga qaratilgan subyektning niyatini amalga oshirish»; O. Fray (2006) esa «boshqani ogohlantirmasdan, muloqotdoshda noto‘g‘ri ekaniga ishonadigan qarashni shakllantirishga qaratilgan muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz oniy urinish» deb tushuntiradi [4]. Yolg‘onni o‘rganishda uning konseptualizatsiyasi, turlari, ishlatilish sabablari va

motivlari, shuningdek, uning subyekti bo'lgan shaxsning tipologik va individual-psixologik xususiyatlari muhokama qilinadi. Ushbu masalalar yig'indisi hozirgi kungacha yolg'onni individual-psixologik va pedagogik yondashuv doirasida tadqiq etishning asosiy predmetini tashkil qiladi.

Yangi O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotida dezinformatsiya ko'pincha manipulyativ texnologiyalar vositasi sifatida qo'llanilib, guruh va yakka shaxs ongiga ta'sir o'tkazishda ishlatilmoqda. Axborot maydonining kengayishi va raqamli platformalarning rivojlanishi natijasida noto'g'ri yoki maqsadli buzilgan ma'lumotlar jamiyatda tez tarqalib, aholining fikr-mulohazalariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Dezinformatsiyaning inson xulq-atvorida namoyon bo'lishini aniqlovchi empirik ko'rsatkichlarni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu ko'rsatkichlar asosida turli ijtimoiy vaziyatlarda va professional faoliyat sohaslarida yolg'onni aniqlash va unga qarshi samarali chora-tadbirlar ishlab chiqish mumkin. Bu yondashuv Respublikamizning ta'lim, ommaviy axborot vositalari va jamoat boshqaruvi sohaslarida dezinformatsiyaga qarshi kurashish strategiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Jamiyatda ishonch muhitini mustahkamlash, axborot xavfsizligini ta'minlash va ijtimoiy barqarorlikni saqlashga yordam beradi. Pedagogika sohasida dezinformatsiyaga qarshi samarali yondashuvlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zarur.

1. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish: Pedagogik jarayonning markazida o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish turadi. O'quvchilarni har qanday axborotni qabul qilishdan oldin uni baholash, manbasini tekshirish va haqiqatga mosligini aniqlashga o'rgatish muhim. Bu nafaqat akademik muvaffaqiyatni oshiradi, balki dezinformatsiyaga qarshi immunitet hosil qiladi.

2. Axborot savodxonligini oshirish: O'quvchilarga axborot manbalarini to'g'ri tanlash, turli xil axborotlarni solishtirish va tahlil qilish ko'nikmalarini berish zarur. Bu yondashuv ta'lim jarayonida axborotni qidirish, tasniflash va baholashni o'z ichiga oladi, shuningdek, internet va ijtimoiy tarmoqlardagi ma'lumotlarning ishonchliligini tekshirishga qaratilgan mashg'ulotlarni ham qamrab oladi.

3. Etik axborot iste'moli: Pedagoglar o'quvchilarga axborotni qanday etik va mas'uliyatli iste'mol qilishni o'rgatishi kerak. Bu axborotni tarqatishda, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda yolg'on ma'lumot tarqatmaslik, boshqa odamlarning shaxsiy hayotini hurmat qilish kabi qadriyatlarini rivojlantirishni nazarda tutadi.

4. Faol va interaktiv ta'lim usullari: Dezinformatsiyaga qarshi kurashda faqat nazariy bilim yetarli emas. Pedagoglar o'quvchilarda amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish uchun rolli o'yinlar, diskussiyalar, case-study va loyiha asosida ishlash metodlarini qo'llashlari kerak. Bu usullar o'quvchilarning o'zaro mulohazada bo'lishi, axborotni tanqidiy tahlil qilishi va dezinformatsiyani aniqlash qobiliyatini oshirishga yordam beradi.

5. Ota-ona va jamoatchilik bilan hamkorlik: Ta'lim muassasalari ota-onalar va jamoatchilik bilan hamkorlikda dezinformatsiyaga qarshi kurashni kuchaytirishi lozim. Maxsus treninglar, seminarlar va targ'ibot ishlari orqali oilalar ham axborot savodxonligi va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda faol ishtirok etishlari mumkin.

Xulosa: Dezinformatsiya zamonaviy ta'lim tizimiga sezilarli tahdid solmoqda va yosh avlodning to'g'ri, haqiqatga asoslangan bilim olish imkoniyatlarini cheklamoqda. Pedagogik yondashuvlar orqali dezinformatsiyaga qarshi samarali kurash olib borish zarur. Tanqidiy fikrlash va axborot savodxonligini rivojlantirish, etik axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish, faol va interaktiv ta'lim usullarini qo'llash ta'lim jarayonining sifatini oshirish va yoshlarni axborot maydonida ongli hamda mas'uliyatli harakat qilishga tayyorlashda muhim o'rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Eshonjonov B. Z. Migrant oilalar farzandlarining ta'lim samaradorligini oshirishdagi mavjud muammolar // "Zamonaviy uzluksiz ta'lim: innovatsiya va istiqbollar" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Metodist nashriyoti, 2024. – B. 481–483.
2. Eshonjonov B. Z. Educational Problems of Children Whose Parents Have Left for Labor Migration // "The Future of Work: Social Science Insights on Labor and Employment Trends" xalqaro konferensiyasi materiallari. – Florida, USA, 2025. – P. 183–185. – URL: Conference proceedings page
3. Douek E. Governing Online Speech: From "Posts-as-Trumps" to Proportionality and Probability // Columbia Law Review. – 2021. – Vol. 121. – No. 3. – URL: Columbia Law Review article
4. OECD. The Protection and Promotion of Civic Space: Strengthening Alignment with International Standards and Guidance. – Paris: OECD Publishing, 2022. – DOI: OECD civic space report DOI page